

KITOBBLAR VA ULARNING UNVERSITETDA TA'LIM MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15272593>

Kosimova Nargiza Dilmuratovna

*University of Economics and Pedagogy, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
professori, p.f.n., dotsent.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada kitoblarning universitet muhitida ta'lim madaniyatini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Iqtisodiyot va Pedagogika Universitetida ilmiy ta'lim jarayonini rivojlantirish, talabalar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va innovatsion ta'lim jarayonlarini shakllantirishda kitoblarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot davomida kitob o'qishning ta'lim madaniyatiga ijobiy ta'siri empiric dalillar asosida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar

kitoblar, universitet, ta'lim madaniyati, ilmiy saohiyat, tanqidiy fikrlash, innovatsion ta'lim.

Аннотация

В данной статье анализируется роль книг и чтения в формировании образовательной культуры в университете. А также, ее развитие научно-педагогической деятельности, формирование культуры чтения среди студентов образовательного процесса в экономико- профессиональной сфере. Проведенное обследование между студентами дали аналитические данные как чтение способствует повышению академического потенциала студентов, развитию критического мышления и внедрению инновационных образовательных процессов. В процессе исследования обсуждается положительные влияния культуры чтения на образовательную среду, подкреплённое эмпирическими данными.

Ключевые слова

книги, университет, образовательная культура, научная грамотность, критическое мышление, инновационное образование.

Abstract

This article analyzes the role of books and reading in the formation of educational culture at the university. And also, its development of scientific and

pedagogical activity, the formation of a reading culture among students of the educational process in the economic and professional sphere. The conducted survey among students gave analytical data on how reading contributes to the increase of students' academic potential, development of critical thinking and implementation of innovative educational processes. The positive influence of reading culture on the educational environment is discussed in the process of the study, supported by empirical data.

Key words

books, university, educational culture, scientific literacy, critical thinking, innovative education.

“O‘ZBEKISTON-2030” STRATEGYASIDA TA‘LIM TIZIMI ISLOHOTLARI ENG BIRINCHI VAZIFA ETIB BELGILANISHI MUHIM VA SHARTDIR,, SH.MIRZIYOYEV

Bugungi kunda ta'lim tizimi va uning rivojlanishi jamiyatimizning barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni, bo'lajak mutahassislariga puxta bilim berish, hamda innovatsiyalar markazi sifatida, yosh avlodni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlarni yetkazish vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada, universitetlarning ta'lim jarayonidagi o'rni, ularning ta'lim metodologiyalari va zamonaviy talabalarning ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirish mexanizmlari tahlili va tavsiyalari haqida so'z yuritamiz.

Zero, Andijon viloyati Bobur kutubxonasi bilan universitet o'rtasida mustahkam hamkorlikda ish olib borishni asosiy maqsad qilib oldik. Ta'lim va tarbiyaning asosiy omili bu kitoblar va ilmiy tadqiqotlar orqali olingan bilimlarning ahamiyati, shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi roli ham muhokama qilinadi. Maqola orqali ta'lim va ilm-fan sohasidagi yangiliklar va o'zgarishlarni yoritib, professor-o'qituvchilar, talabalar va ilmiy tadqiqotchilar uchun foydali manba bo'li b xizmat qilishini imiy faraz sifatida tahmin qilib oldik.

Iqtisodiyot va Pedagogika Unversiteti mamlakatimizda innovatsion ta'lim tizimini joriy etayotgan yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblanadi. Unversitet kutubxonasi zamonaviy ilmiy adabiyotlar,electron va bosma kitoblar bilan boyitilgan bo'lib talabalar va professor-o'qituvchilarning ilmiy izlanish va mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim jarayonining zamonaviy ko'rinishi tobora rivojlanib kelmoqda. Barcha oliy ta'lim muassasalari oldida faqatgina an'anaviy bilim berish emas,balki talabalarning mustaqil izlanish

qobilyatini rivojlantirish, innovatsion fikrlash va ilmiy tafakkurni shakllantirish kabi vazifalar turibti. Universitet ta'lim nafaqat bilim berish, balki ilmiy madaniyatni shakllantirish jarayoni ham hisoblanadi. Talabalar ilmiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va izlanish qobilyatlarini rivojlantirish uchun keng qamrovli manbalarga tayanishlari kerak. Kitoblar bu jarayonning eng muhim vositalaridan biri bo'lib, o'quv jarayonini kichik ilmiy tadqiqotlar, startap loyihalar va akademik bilimlarini shakllantirishda katta ro'l o'ynaydi.

Jadallik bilan texnologik asrimizning taraqqiy etishi, ta'lim olish usullari tubdan o'zgarib, elektron kitoblar, raqamli kutubxonalar va interaktiv materiallar ta'lim tizimiga joriy qilinmoqda. Shu bilan birga, an'anaviy bosma kitoblar ham universitet muhitida o'z ahamiyatini takomillashtirib bormoqda. Ushbu maqolada kitoblarning universitet ta'lim madaniyatiga ta'siri, ularning ilmiy muhitni rivojlantirishdagi o'rni va talabalar intellektual rivojlanishiga qo'shayotgan hissassi ham tahlil qilinadi.

Ma'lumki, muhtaram yurtboshimizning kitobhonlikka e'tibor berishni har safar ta'limga oid ma'ruza va qarorlarida alohida ta'kidlab o'tadi. Buning zaminida inson qalbini zabt e'tish yo'li bu oqish va kitob orqali amalga oshirish masalasini dolzarb deb belgilaydi. Iqtisoiyot va Pedagogika universitetida kutubxona resurslarining doimiy kengayib borishi va zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan integratsiyasi kuzatilmoqda.

Tanqidiy tafakkur bugungi ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Manbalarga ko'ra, Garb olimlaridan Paul va Elder (2006) takidlaganidek, tanqidiy fikrlash o'quvchilarning chuqur tahlil qilish, mantiqiy bog'liqliklarni aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish qobilyatini rivojlantirishi haqida fikr bildirishgan. Zero, universitet ta'lim madaniyati-bu talabalar va professor-o'qituvchilarning ilmiy an'analar, akademik qoidalar va o'quv jarayoni asosida shakllangan intellectual muhitdir.

Tahminimizcha, talabalar kitoblar orqali :

- Mualliflar tomonidan ilgari surilgan konsepsiyalarni tahlil qiladi;
- Turli manbalarni taqqoslash va baholashni o'rganadi;
- O'zlarining ilmiy qarashlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan qator tahlil natijalariga tayanadigan bo'lsak, Xorijiy ilgor tajribali oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ta'limiga koproq e'tibor qaratishini aniqladik, buning natijasida talabaning o'quv jarayoniga mustaqil yondashuvi asosida bilimlari mustahkamlanishi, talabalar turli muammoli vaziyatlarga konvergent bilim bilan birga divergent yechim variantlarini topishga urinish hissi paydo bo'lishi tabiiy ekanligini tahmin qilish

mumkin. Ushbu izlanishlar orqali talabalar universitet o'quv jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, kitoblar bu borada asosiy resurslardan biri hisoblanadi.

Kitobxonlik madaniyatini rag'batlantirish usullari.

Kitobxonlik universitet muhitining muhim qismi bo'lib, uni rag'batlantirish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Universitet kutubxonalari faoliyatini rivojlantirish.
2. Ilmiy seminarlar va muhokamalar tashkil etish.
3. Elektron va bosma kitoblarni integratsiya qilish.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, universitetlarda ta'limning innovatsion usullari ham keng joriy etilmoqda. Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti bu borada ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun turli motivatsion metodlarni qo'llashi muhim ahamiyat kasb e'tadi, masalan, kitobxonlik tanlovlari, eng ko'p kitob o'qigan talaba, adabiy kechalar, bularning barchasi nafaqat talabalar o'tasida raqobatni shakllantiradi balki, kitobxonlar safini ko'payishiga ham olib keladi, Bunday samarali natijalarni e'tirof e'tish, ya'ni eng faol o'quvchilarga rag'batlantiruvchi mukofotlar berish talaba yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini ham oshirishi tabiiydir.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari universitetlarda yangi o'quv metodlarini joriy qilish imkoniyatini yaratmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi ta'lim jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy kitoblar bilan bir qatorda quyidagi zamonaviy ta'lim resurslari bilan ta'minlanishi ham kun sayin oshib bormoqda, hususan:

1. Elektron kitoblar va onlayn kutubxonalar;
2. Audiokitoblar va video darsliklar;

3. Sun'iy intellekt va interaktiv o'quv materiallari va shu kabi yangi texnik vositalar bilan boyitilmoqda. Ushbu innovatsion resurslar universitet ta'lim madaniyatining yangi bosqichga chiqishiga sabab bo'lmoqda. Ammo, an'anaviy kitoblarning o'rne hamon muhim bo'lib qolmoqda. Kitoblar universitet ta'lim madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, talabalarning intellektual rivojlanishi, ilmiy izlanishlari va akademik madaniyatni shakllantirishida muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat bilim manbai, balki tanqidiy fikrlash, mustaqil o'rganish va ilmiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida ham katta rol o'ynaydi.

Nazariy tahlillarga tayangan holda bugun ta'lim muassasasida mehnat qilayotgan professor- o'qituvchimi, talaba yoshlarmi kim bo'lishidan qat'iy nazar, shunday imkoniyatlardan foydalanishi qanday amalga oshmoqda degan tabiiy savol

tugildi. Shu maqsadda iqtidorli talabalar bilan birga universitetimiz talabalar o'rtasida ilmiy tadqiqot ishi olib bordik.

Tadqiqot ishida universitetimiz da tahsil olayotgan Ingliz filologiyasi 2 bosqich 10 va 13 gurux talabalari o'rtasida, ja'mi 60 nafar respondentlar bilan o'tkazildi.

Tadqiqotning maqsadi: Kitoblar va ilmiy tadqiqotlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va talabalarning bilim olishdagi roli haqida chuqur tahlil o'tkazish.

Tadqiqot 2 bosqichda o'tkazildi.

Tadqiqot metodlari: intervyu, ijtimoiy-psixologik so'rovnoma

1 -bosqichi talabalarni kitob o'qishga munosabatini aniqlash maqsadida 6 nafar talabalardan intervyu olindi (tahlillar quyidagicha).

Akramjonova Mohinur: Har bir inson hayotda o'ziga ruhiy ozuqa bera oladigan narsani topishi kerak. Kimdir tabiat qo'ynida hordiq chiqaradi, kimdir musiqa orqali ilhom oladi. Mening esa ruhiy yuksalishim va ichki qalbimning boyishi kitoblar bilan bog'liq. Ayniqsa, badiiy adabiyot va diniy kitoblar hayotimning ajralmas qismiga aylangan. Badiiy asarlar menga yangi olamlarni ochadi, turli taqdir, insoniy kechinmalar bilan tanishtiradi. Har bir asar – hayotning boshqa bir qirrasini, qahramonlarning ichki dunyosi esa inson ruhiyatining nozik tomonlarini anglashga yordam beradi. Ba'zan o'qigan qissalarim hayotim bilan uyg'unlashib ketadi, ba'zan esa yangi saboqlar beradi.

Jo'rayeva Oydinoy: Adabiyot hayot haqiqatlarini ochib beruvchi sehrli oynadir. U insonni o'ylashga, his qilishga va hayotga yangicha qarashga o'rgatadi. Diniy kitoblar esa menga ma'naviy kuch beradi. Ular inson qanday yashashi, hayotdagi vazifasi nima ekanini haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. Har bir oyat, har bir hikmatli so'z qalbinga tasalli beradi, hayotning sinovlariga bardosh berishga yordam beradi. Diniy mutolaa orqali men sabr, shukr va tavakkalning naqadar buyuk ne'mat ekanini chuqurroq tushunaman. Bu kitoblar nafaqat hayotiy yo'limga yoritadi, balki har qanday vaziyatda ichki xotirjamlikni saqlashimga ham ko'maklashadi. Kitob – hech qachon yolg'izlatmaydigan, hech qachon sotmaydigan, har doim o'z ichida yangi bilim, yangi tajriba va yangi hissiyotlar hadya etadigan do'stadir.

Obidov Humayun: Hayotimning qaysi davrida bo'lmayin, kitoblar menga hamroh bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Har bir yangi mutolaa – yangi dunyo, yangi tafakkur, yangi ruhiy o'sishdir. Shu bois men hech qachon kitob o'qishdan charchamayman, aksincha, har bir sahifa bilan yangi narsa o'rganishga, yanada mukammal inson bo'lishga intilaman. Chunki kitob – hayot yo'limga yorituvchi nurdur.

Hoshimova Odinabegim: Kitob bilim manbai, kitoblar, bizning bilimimizni kengaytirish va yangi g'oyalarni o'rganish uchun eng asosiy manba hisoblanadi. Har bir kitobda yangi bir narsani kashf etish imkoniyati bor." Yaqinda turk yozuvchisi Ahmad Lutfiy Kozonchining "O'gay ona" asari menda juda katta taa'surot qoldirdi. Ayniqsa, bosh qahramon Fotimaxonning obrazi nafaqat psixologik ta'sir qildi, balki tarbiyaviy, diniy va iqtisodiy rivojlanishimga ta'sir qildi/ Ayniqsa, oilada ona tarbiyasi, turmush o'rtoqlik vazifasi va umuman olganda muomala madaniyati va e'tikasini asar keng yoritib bergan,

Davlatova Maftuna: kitob o'qish tadqiqot o'tkazish uchun ham goyalar manbai sifatida o'ziga hos xususiyatlarga ega. Kitoblar, ilmiy tadqiqotlarimizda muhim rol o'ynaydi. Ular bizga chuqur tahlil qilish, fikr yuritish va o'z g'oyalarimizni rivojlantirishda yordam beradi.

Tojimamatova Madinabegim: psixologiyada o'z-o'zini tarbiyalash degan bir tushuncha mavjud, menimcha, shu narsa kitob o'qish bilan amalga oshadi deb o'ylayman, kitob o'qish nafaqat bilim olish, balki o'z-o'zini tarbiyalash, yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Bu e'sa bizni mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga o'rgatadi- deb ham o'ylayman.

Tadqiqotning 2 bosqichida 10 savoldan iborat ijtimoiy-psixologik so'rovnoma o'tkazildi. Tahlil natijalari quyidagilarni aniqlash imkonini berdi/

Ijtimoiy psixologik so'rovnoma orqali talabalar orasida kitob o'qishning ahamiyati, ularning kitobga bo'lgan munosabati va o'qish odatlari o'rganildi.

Natijalar

Kitob O'qish Soni:

40% talabalar haftasiga 1-2 ta kitob o'qishlarini bildirgan.

35% talabalar oyiga 1-2 ta kitob o'qishlarini ma'lum qilgan.

25% talabalar kitob o'qish bilan shug'ullanishmaydi yoki juda kam o'qishadi.

Kitob tanlovi:

50% talabalar badiiy adabiyotlarni afzal ko'rishlarini aytgan.

30% talabalar ilmiy va o'quv kitoblarini tanlaydilar.

20% talabalar boshqa janrlarga qiziqish bildirgan.

Kitob o'qishning foydalari:

70% talabalar kitob o'qishning bilim olish va fikrlashni rivojlantirishga yordam berishini ta'kidlagan.

20% talabalar kitob o'qishning stressni kamaytirish va dam olishda foydali ekanligini aytgan.

10% talabalar kitob o'qishning ularga qiziqarli bo'lmasligini bildirgan.

Tahlil

Talabalar o'rtasida kitob o'qish statistikalari	Foiz (%)
Kitob O'qish Soni	
Haftasiga 1-2 ta kitob o'qiydilar	40%
Oyiga 1-2 ta kitob o'qiydilar	35%
Kitob o'qish bilan shug'ullanishmaydi yoki kam o'qiydilar	25%
Kitob Tanlovi	
Badiiy adabiyotlar	50%
Ilmiy va o'quv kitoblari	30%
Boshqa janrlar	20%
Kitob o'qishning foydalari	
Bilim olish va fikrlashni rivojlantirish	70%
Stressni kamaytirish va dam olishda foydali	20%
Qiziqarli emas	10%

So'rovnoma natijalari talabalar orasida kitob o'qishning muhimligini ko'rsatmoqda. 40% talabalar muntazam ravishda kitob o'qishlariga qaramay, 25% talabaning kitob o'qish bilan shug'ullanishmasligi, o'qish odatlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kitob tanlovida badiiy adabiyotlarning afzalligi, talabalar uchun o'z-o'zini anglash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kitob o'qishning foydalari haqida talabalar orasida ijobiy fikrlar ko'pligi, o'qishning nafaqat bilim olish, balki psixologik holatni yaxshilashda ham muhimligini ko'rsatadi.

Ushbu natijalar, universitetda ta'lim jarayonida kitob o'qishni rag'batlantirish va talabalar o'rtasida o'qish madaniyatini rivojlantirish uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kitoblar universitet ta'lim madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, talabalarning ilmiy salohiyatini oshirish, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bizning Iqtisodiyot va Pedagogika universitetimiz ilmiy va innovatsion ta'lim tizimini rivojlantirishga kata e'tibor qaratmoqda. Universitetimiz zamonaviy kutubxona infratuzilmalari, elektron ta'lim resurslari va akademik muhitni shakllantirish orqali talabalarga sifatli ta'lim va mustaqil izlanish imkoniyatlarini

taqdim etmoqda. Shu sababli, universitetimiz tomonidan amalga oshirilayotgan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, ilmiy adabiyotlarni keng targ'ib qilish va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash kabi tashabbuslar kelajak avlodning ilmiy salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2024-YIL 28-MART KUNI MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH VA SIFATINI OSHIRISHGA OID REJALAR TAQDIMOTIDA PREZIDENT TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR HAQIDAGI MA'RUZASI.
2. Altbach, P.G., & Knight, J. (2007). The internationalization of Higher Education: Motivations and Realities. *Journal of Studies in international education*, 11(3-4), 290-305.
3. Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University*. McGraw-Hill Education.
4. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1-6.
5. Carr, N. (2010). *The Shallows: What the Internet is Doing to Our Brains*. W.W. Norton & Company.
6. UZ UNESCO (2023). O'zbekistonda oliy ta'lim va ta'lim madaniyatining rivojlanishi.